



Soʻzlarning koʻzgudagi aksini oʻqing. Bu soʻzlarni birlashtiruvchi jihatlarni ayting.

podchunriqmelp siqlay kstam'ni
dopin pozmiras jidsjns soyiq



Mikrob, virus va Salomat qiz haqida ertak

Kavsar Turdiyeva

||

Yo'qotmasdan o'zini
Aytdi dadil so'zini.
Mikrofon olib shu tob: –
Hamma taqvolsin niqob.
Eshik-oyina ochilsin!
Yelvizakdan qochilsin!
Tozalansin uylar ham,
Hatto ko'cha-ko'ylar ham.
Qo'llar toza yuvilsin,
Barcha mikrob quvilsin!
Viruslarni qirmoq shart,
Piyozdan siqib sharbat.
Tayyorlaymiz o'q-qurol,
U bo'ladi dorivor. –

Hamma ishga kirishdi,
Mikrob bilan kurashdi.
Buni eshitib shu tob
Razil Virus va Mikrob
Jahldan tutoqdilar,
Qahr bilan boqdilar.
Endi jangga kirishar,
Jon-jahd bilan kurashar.
Isitmani ko'tarar,
Qaqshatar va titratar.
Shodlikni aritishar,
Darmonni quritishar.
Salomatda esa bor
O'q-dorilar dorivor.

Separ Mikrobgga uni
Bitadi Mikrob kuni.
Virus-Mikrob qirilar,
Dorilarga urilar,
Virus boshiga to'qmoq
Urar yana Sarimsoq.
Yov ishi chiqar puchga,
Bemorlar kirar kuchga!
"Endi, – deydi Salomat,
– Yaratamiz alomat
Giyohlardan damlama.
Ular to'rvamda, mana.
Yalpiz va Yerqalampir,
Na'matak va Zanjabil,
Qani ishga, odamlar,
Bemor topsin yordamlar!
Yana qalampirmunchoq
Olib keldim bir quchoq".
Ishlar qizir har joyda,
Harakat – koni foyda.
Paydo bo'la boshlanur
Bemorlar ko'zida nur.
Sayyora aholisi
Salomatdan barisi
Juda minnatdor, xursand,
Uning obro'si baland.
Barcha quvvatga to'lar,
Damlamalar kuch berar.
Mana so'nggi bemor ham,

Tuzaldi, bo'ldi bardam.
"Yash" sayyoraning ahli,
Katta-yu kichik – bari:
Salomatga der "Rahmat!"
Xursand bo'lishib behad,
Sovg'a bilan siylashar,
Ezgu tilak tilashar.
Yengildi yovuz Mikrob,
Virus ham bo'ldi xarob,
Gripp ham Tumov qochdi,
Sog'lomlikka yo'l ochdi.
"Yash" sayyorasi esa
Endi nom oldi "Yasha!"
Salomat uyga qaytar,
Sehrli so'zlar aytar:
"Shumati, bumati, davara,
Qiynalmay, bo'lmayin
ovvora,
Samoni bir zumda quchayin,
Ona Yer, sen tomon
uchayin!"
U uyda bo'ldi paydo,
Uzoqdan keldi sado:
"Neki "Yasha" xalqi bor,
Bari sendan minnatdor.
Qo'llab hayot farzini,
Sog'lom turmush tarzini,
Sendagi sabr, ishonch
Keltirdi bizga quvonch".



1. Salomat sayyora ahlini tuzatishda qanday yo'l tutdi?
2. Agar hamma bolalar Salomat qilgan ishlarni bajarsa, nimalar o'zgaradi?
3. Sog'lom turmush tarzi deganda nimani tushunasiz?
4. Siz nima deb o'ylaysiz, Salomat yordam bermaganida vaziyat qanday bo'lar edi?
5. Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?



yelvizak – qarama-qarshi eshik-deraza ochiq bo'lgan paytda yoki tor oraliqdan o'tib turadigan havo oqimi, o'tkinchi shamol



Ertakda o'qiganlaringiz asosida mikrob va virus haqida:

- 3 ta fikr ayting,
- 2 ta savol tuzing,
- 1 ta so'z bilan o'xshatish toping.



Ertakni ifodali o'qing va qofiyadosh so'zlarni aniqlang.

Ertak matnidan Salomatning aytgan gaplarini topib o'qing.

Quyidagi tushunchalarni ertakdagi voqealar mazmuni bilan bog'lang. Fikringizni izohlang.

ahillik

sarishtalik

salomatlik

virus

muruvvat

damlama

beg'araz
yordam



Ertakni ifodali o'qing.

“Sog'lom turmush tarzi”
mavzusida matn tuzing.